

MATN KOMPONENTLARINING O‘ZARO ALOQASINI TA‘MINLOVCHI AYRIM STILISTIK VOSITALAR XUSUSIDA

Gaffarova Dilobar Zafarovna

Samarqand davlat chet tillar instituti 4-bosqich talabasi

O‘qituvchi: **Masariddinova Rano Xamidovna**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada matn komponentlarining o‘zaro aloqasini ta‘minlovchi ayrim stilistik vositalar xususida gap yuritiladi*

***Kalit so‘zlar:** Matn, Til, Nutq, Stilistik, Struksiya.*

Tilshunoslik fani tarqqiyotining hozirgi davrida tilning nutqqa ko‘chirilishi masalasiga g‘oyat muhim ahamiyat berilmoqda. Buning asosiy sababi, birinchidan, tilning murakkab sistemasi amalda qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, “til va nutq” dixotomiyasining ikkinchi qirrasiga tegishli muammolar talqini ancha kech boshlanganligidadir [Turniyozov 2005: 52].

Matn tilning nutqqa ko‘chirilishida ustuvor ahamiyat kasb etadi va shuning uchun u mazkur jarayonda asosiy obyekt sanaladi. Tilning nutqqa ko‘chirilishi bilan butun bir matnning shakllanishi bevosita bog‘liq bo‘lib, u natijada til unsurlarining nutqiy faollik olishi hamda stilistik jihatdan ham shakllanishini taqozo qiladi. Matnlarni stilistik jihatdan tahlil qilish uchun, avvalambor, ular uch guruhga ajratiladi: mikromatn, kengaytirilgan mikromatn va makromatn [E.Riesel 1975: 210].

Stilistik jihatdan mikromatn so‘z, so‘z birikmasi yoki bitta mustaqil gapdan iborat bo‘ladi. Kengaytirilgan mikromatnlar esa, tadqiqotchining tahlil metodiga qarab abzatsgacha hajmli matnlardan iborat bo‘lishi mumkin. Makromatn formal va semantik tugallangan butun bir asarni taqozo qiladi. Bu jihatdan matnlarning guruhlanishining asosida quyidagi sabablar yotadi:

- matn uslubiyatining funksiyalarini o‘rganish;
- turli funksional uslublarda va alohida matn uslublarida til vositalaridan kompleks foydalanishga alohida e‘tibor berish.

Matn komponentlarining o‘zaro aloqalarini ta‘minlovchi stilistik vositalardan quyidagilarini ko‘rib o‘tamiz:

- kontekstual sinonimlar;
- takrorlar.

Kontekstual sinonimlar vositasida matn komponentlari o‘zaro bog‘langanda ma‘nodoshlik paradigmasi doimo ochiq bo‘ladi. Jamiyat, davr talabi asosida

keraksizlari iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqining atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turlari, yasama so'zlar, so'z birikmalari, nutqiy ko'chma so'zlar bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonimlar sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi bebaho vosita sanaladi.

Er zeigte auf einen jungen Mann, der am Fenster saß und ein Buch vor sich hatte. »Der Junge dort drüben ist seit zwei Jahren Tellerwäscher in einem Nachtclub. Er war deutscher Student. Vor zwei Wochen hat er seinen französischen Doktor gemacht. Inzwischen hat er erfahren, daß er hier nicht angestellt werden kann, daß aber Chancen in Kapstadt sind. Jetzt lernt er Englisch, um seinen englischen Doktor zu machen und nach Südafrika zu gehen (Remarque 1998: 286).

Keltirilgan matnda *junge Mann, der Junge, Tellerwäscher, deutscher Student, er* so'zlarining o'zaro kontekstual sinonimlik munosabatlarida kelayotganligini ko'ramiz. So'zlar, so'z birikmalari, gaplar va abzatslarni o'zaro bog'lovchi stilistik vositalarning yana biri takrorlarning turli guruhlari hisoblanadi. Nemis tili stilistikasida turli maqsadlarda qo'llaniladigan, turlicha ifoda vositasiga ega bo'lgan takrorlar ikki guruhga ajratiladi:

- aynan bir komponentning takrorlanishi;
- bir komponentning o'zgargan holda takrorlanishi.

Ich spreche hier im Namen Ihrer Eltern und Ihres Chefs und bitte Sie ganz ernsthaft um eine augenblickliche, deutliche Erklärung. Ich staune, ich staune. Ich glaubte Sie als einen ruhigen, vernünftigen Menschen zu kennen, und nun scheinen Sie plötzlich anfangen zu wollen, mit sonderbaren Launen zu paradieren (Kafka 1952: 10).

Und ohne daran zu denken, daß er seine gegenwärtigen Fähigkeiten, sich zu bewegen, noch gar nicht kannte, ohne auch daran zu denken, daß seine Rede möglicher- ja wahrscheinlicherweise wieder nicht verstanden worden war, verließ er den Türflügel; schob sich durch die Öffnung; wollte zum Prokuristen hingehen, der sich schon am Geländer des Vorplatzes lächerlicherweise mit beiden Händen festhielt; fiel aber sofort, nach einem Halt suchend, mit einem kleinen Schrei auf seine vielen Beinchen nieder (Kafka 1952: 16).

Aynan bir komponentning ya'ni, so'z, so'z birikmasi yoki gapning o'zgarmas shaklda takrorlanishi quyidagi holatlarda voqelanishi mumkin:

- asl takror

Mein Vater, mein Vater, und siehst du nicht dort

Erlkönigs Töchter am düsteren Ort?

Mein Sohn, mein Sohn, ich seh'es genau:

Es scheinen die alten Weiden so grau (Goethe 1996: 21).

Keltirilgan matnda *mein Vater* va *mein Sohn* soʻz birikmalara aynan takrorlanib kelmoqda.

- savolga javoban takror

- *War die Reise interessant?*

- *Interessant !* (Kafka 1952: 46)

Savolga javoban takror koʻpincha dialoglarda uchraydi.

-*Lassen Sie uns fliehen, mein Vater !*

-*Fliehen? Was hättest du für Not* (Kafka 1952: 50).

- anafora bu biror komponentning biror konstruksiyaning boshida takrorlanishidir:

Hier lag, hier kämpfte, hier war, hier stand, hier schrie (Kafka 1952: 32)..

Misoldan koʻrinib turibdiki, *hier* komponentining har qaysi konstruksiyaning boshida takrorlanib kelishi matn komponentlarining oʻzaro bogʻlanishi uchun stilistik jihatdan xizmat qilmoqda.

- katafora bu biror komponentning biror konstruksiyaning oxirida takrorlanishi:

Er isst beflissen, trinkt beflissen, schimpft beflissen und liest beflissen

(Kafka 1952: 23).

Biror komponentning oʻzgargan holda takrorlanishi quyidagi holatlarda voqelanishi mumkin:

- kengaytirilgan takror

Hier wird vielleicht auch unser beider Schuldlosigkeit am deutlichsten. A. gibt dem B. einen offenen, seiner Lebensauffassung entsprechenden, nicht sehr schönen, aber doch auch heute in der Stadt durchaus üblichen, Gesundheitsschädigungen vielleicht verhindernden Rat. Dieser Rat ist für B. moralisch nicht sehr stärkend, aber warum sollte er sich aus dem Schaden nicht im Laufe der Jahre herausarbeiten können, übrigens muß er ja dem Rat gar nicht folgen und jedenfalls liegt in dem Rat allein kein Anlass dafür, dass über B. etwa seine ganze Zukunftswelt zusammenbricht (Kafka 1952: 47).

Keltirilgan misolda *der Rat* soʻzining turli oʻrinlarda turli aniqlovchilar bilan kengayib kelayotganligi matn komponentlarining stilistik jihatdan bogʻlanishini taʼminlamoqda.

- flektiv takrorlarda biror komponent grammatik jihatdan oʻzgargan holda takrorlanadi:

In dem Garten ist ein Baum, auf dem Baum ist ein Nest, in dem Nest ist ein Ei, im Ei ist ein Dotter (Bruder Grimm 1967: 26).

Berilgan mikromatnda takroran qoʻllanilayotgan soʻzlar sintaktik jihatdan oʻrin holi va ega vazifalarida kelayotganligini koʻrishimiz mumkin.

Matn mazmuni va mundarijaviy tuzilishini tahlil etish muammosi, soʻzsiz matn mazmunida stilistik kategoriyalarning tutgan oʻrnini aniqlash masalasini ham muhokama etishni talab qiladi. Tadqiqotchilar allaqachon bu masalaga eʼtibor

qaratishib, stilistik yaxlitlikning matn tuzilishining muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligini qayd etishgan. Ammo matnning stilistik strukturasi o'ld ma'lumotlar kam miqdorda va ular matn mazmuniy mundarijasining shakllanishida uslubiy ko'rsatkichlarning o'rni haqida to'liq xulosaga kelish uchun yetarli emas.

ADABIYOTLAR

1. Турниёзов Н. Матн – тилнинг нутққа қўчирилишида асосий объект // Матн лингвистикаси, Самарқанд, 2005. – 52-54 б.
2. Riesel E., Schendels E. Deutsche Stilistik. – М.: Verlag Hochschule, 1975. – 316 S.
3. Remarque E.M. Liebe deinen Nächsten. – Kiepenheuer:Witsch, 2004.–376 S.
4. Brüder Grimm. Die wahren Märchen der Brüder Grimm. – Borschiert, 1998. – 76 S.
5. Goethe J.W. Sämtliche Gedichte. – Insel Verlag, 1996. – 345 S.
6. Kafka F. Brief an den Vater. - Frankfurt am Main, 1952. – 57 S.